

QUR'ONDAGI QISSALARING BAYON ETILISHI, O'ZIGA XOS JIHATLARI TAHLILI

Hamroqulova Robiyaxon

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi
Islomshunoslik mutaxassisligi magistri

robiya127@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola islomning muqaddas manbasi Qur'oni karimdagи qissalar haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan va mavzuga doir muallifning tahlil va xulosalarini aks ettirgan. Muallif maqolani yoritishda qissa so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolari, Qur'onagi qissalarning o'ziga xos jihatlari, badiiy qissalardan farqi, davr e'tiboridan turlari va mavzulariga to'xtalgan.

Kalit so'zlar: Qur'oni karim, oyat, qissa, payg'ambar, xabar, da'vat, qavm, nasr, hikoya, tarix.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng milliy va diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi o'zbek xalqining ma'naviy yuksalishida muhim omillardan biriga aylandi. Islom – milliy ma'naviyatimizning ajralmas bo'lagidir va shu e'tiboridan islomshunoslik sohasida ham ko'plab dolzarb va ahamiyatga ega ilmiytadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Islom dini ta'limotlarining asoslarini yoritishda muqaddas Qur'oni Karim birlamchi manba hisoblanadi. Shu qatori, Qur'onagi qissalar ham tarixiy, ham tarbiyaviy jihatdan alohida ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Islom dinining muqaddas kitobi, birlamchi manbasi hisoblanuvchi Qur'oni Karim oyatlari mavzu jihatidan uchta katta guruhga bo'linadi: tawhid, g'ayb masalalari, farishtalar, jinlar, jannat, do'zah, shafoat, qiyomat bilan bog'liq hodisalar kabi masalalarni bayon qiluvchi aqidaviy oyatlar, tahorat, namoz, ro'za, zakot, haj, halol va haromga tegishli masalalarni bayon etuvchi oyatlarni o'z ichiga oluvchi fiqhiy oyatlar va payg'ambarlar va ularning qavmlari o'rtaida bo'lgan voqealar, solih va fojir kishilar, o'tkan ummatlardan ismi ochiqlanmagan qavm va kishilar, Muhammad (s.a.v.) davrida sodir bo'lgan voqealar kabi tarixiy hodisalarning zikri keltirilgan oyatlar. Qur'onda ilgari o'tgan Payg'ambarlar, qavmlar, shaxslar faoliyatları haqida ma'lumot beruvchi oyatlarning soni 1000 dan ortiq.

Islom dinida ham oldingi o'tgan xalqlar haqidagi ma'lumotlarning uzatilish yo'llaridan biri qissa hisoblanadi. Shubhasiz, Qur'oni karimda uchraydigan qissalar yoshlar uchun ibrat va nasihatlarni o'z ichiga olgan ta'limotlarga boydir.

“Qissa” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida tarix, hikoya, qissa, novella, og‘zaki xabar, rivoyat qilingan xabar va yangilik ma’nolarini anglatadi va o‘zbek tilida ham ayni ma’noda keng qo‘llaniladi. Shuningdek, arablarda bir ishning ortidan ergashish ma’nosida ham mazkur so‘z ishlatiladi. Masalan, Muso (a.s.)ning onasi bolani sandiqchaga solib, daryoga tashlagach qiziga shunday deydi : “**Uning ortidan tushgin**” (Qasos surasi 11-oyat). “Qasos olish” deganda ham qasos oluvchini avvalgi ishni sodir etgan odamning ishiga ergashishi nazarda tutiladi. Ayrim o‘rinlarda qaychi yordamida kesish va qirqish ma’nolarida ham “qissa” so‘zi ishlatiladi. Shuningdek, Qur’oni Karimda ham bir necha o‘rinlarda Alloh taolo o‘tgan ummatlarning xabarlarini keltirib, ularga qissalar deb nom bergen. Jumladan, “(Ey, Muhammad!) **Biz sizga o‘tib ketgan (avlod)lar xabarlaridan shu tarzda** (qissa qilib) **so‘zlab berurmiz**” (Toha, 99), “**Bas, (Muso Shuaybning huzuriga) kelib, unga o‘z qissasini so‘ylab bergach**” (Qasos, 25), “**Ana shu Biz sizga** (ey, Muhammad!) **qissasini aytayotgan shaharlarning xabarlaridandir**” (Hud, 100), “**Sizga (ey, Muhammad), Payg‘ambarlarning xabarlaridan dilingizga sabot baxsh etadiganlarini aytib bermoqdamiz.** Bu (qissalar)da haqiqat, mo‘minlar uchun nasihat va eslatma kelgandir” (Hud, 120), “**Biz sizga Qur’on (surasi)ni vahiy qilishimiz bilan birga go‘zal qissani aytib berurmiz**” (Yusuf, 3) oyatlarini keltirib o‘tish mumkin. Istilohiy ma’noda qissa deb biror narsa, kimsa va ular bilan bog‘liq voqeа-hodisalar, og‘izdan-og‘izga ko‘chib yuradigan hikoya, naqlga aytildi. Qissa va xabar orasida farqlar mavjud. Jumladan, har qanday qissa xabar hisoblanadi, lekin har bir xabar qissa bo‘la olmaydi. Masalan, Alloh osmonlar va yerni, farishtalarni, jinlarni yaratishi, Payg‘ambarlar, hamda ularning otalarining ismlari xabar bo‘lib, qissa hisoblanmaydi. Ammo, Payg‘ambarlar va ularning qavmlari bilan sodir bo‘lgan voqealarning zikr qilinishi, yaxshilar va fojirlar orasidagi kurash kabilar qissadir.

Adabiyotda, ma’lum voqeа-hodisalar haqida og‘izdan-og‘izga ko‘chib yuradigan epik asar, hikoya, rivoyatga qissa deb yuritiladi. Qissa adabiy janr sifatida romanga nisbatan tor va soddaligi, hikoya bilan solishtirganda esa keng va murakkabligi bilan ajralib turadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, qissa hikoya va roman bilan bir qatorda adabiyotda keng qo‘llaniluvchi uchta asosiy nasriy janrlardan biridir. Qissaga arablar: “Hodisalar va turli amallarni lug‘aviy uslub bilan bayon qiluvchi, hamda ko‘zlangan maqsad bilan yakunlanuvchi hikoya”, – deb ham ta’rif berishadi.

Qur’oni Karimdagи qissalar hozirda adabiy janr sifatida rivojlangan qissalardan o‘zining voqeiyligi, juda qisqa ifodalanishi bilan farq qiladi. Ko‘p o‘rinda hadislardagi qissalar Qur’on oyatlarida bayon qilingan qissalarni sharxlab, to‘ldirgan. Bunga misol tariqasida Kahf surasidagi Muso (a.s.) va Xizr voqeasini, Baqara surasidagi yahudiylar bilan sodir bo‘lgan hodisalarni, Buruj surasidagi Chox egalari voqealarini keltirish

mumkin. Ko‘p o‘rinlarda Qur’oniy qissalar hadis qissalari kabi hodisani to‘la yoritmagan, shu sababli tafsir kitoblarida oyatlarni sharxlash uchun hadis qissalaridan va sahobiy rivoyatlaridan unumli foydalilaniganini ko‘rish mumkin. Payg‘ambar (s.a.v.) din yo‘lida da’vat qilishda qissalardan samarali foydalana olgan. Sahobiylarni tarbiyalashda turli qissalardan foydalanganlar va ularning e’tiborini qissalar vositasida diniy aqida, to‘g‘ri turmush tarzi va yuksak xulq-atvorga qaratgan. Qissalar ma’lum masalani tushunishni osonlashtiradi va qissaning ma’nosini olimlar bilan bir qatorda omilar ham tushuna oladi. Rasululloh (s.a.v.)ning sahobiylarga ta’lim va tarbiya berishda qissalarga alohida e’tibor qaratganlarining ifodasi shuki, u zot bir qissani bir necha marotaba, turli majlislarda qayta-qayta zikr qilar edilar. Sahih, sunan, musnad, mustadrak va shu kabi ishonchli hadis to‘plamlarida ham qissalar ko‘plab uchraydi.

Qur’on oyatlarida keltirilgan qissalarni zamon e’tiboridan ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin.

1. Tarixiy qissalar, ularga avvalgi asrlarda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni aks ettirgan qissalar kiradi. Bunga Nuh (a.s.), Ibrohim (a.s.) va Muso (a.s.) kabi payg‘ambarlar va boshqa shaxslarga tegishli qissalarni misol qilib keltirish mumkin. Payg‘ambarlar qissalariga ularning o‘z qavmlariga qilgan da’vatlari, ko‘rsatgan mo‘jizalari, da’vatning bosqichlari, iymon keltirgan va kofir bo‘lganlarning oqibatlarini kiritish mumkin. Payg‘ambar bo‘lmanlar qissalariga Maryam, Tolut va Jolut, Odam (a.s.)ning o‘g‘illari, G‘or egalari, Chox egalari, Fil egalari kabilalar bilan sodir bo‘lgan hodisalarni keltirish mumkin. Tarixiy qissalarning barchasini islomgacha bo‘lgan davrda sodir bo‘lganligi birlashtirib turadi. Rasululloh (s.a.v.) ham, sahobiylar ham ushbu qissalarda bayon etilgan voqealarga guvoh bo‘lmanlar.

2. Muhammad (s.a.v.) hayotlik davrlarida sodir bo‘lgan voqealarga aloqador qissalar. Badr, Uhud va Tabuk g‘azotlari, hijrat va Isro voqealarini bayon etuvchi oyatlar bunga misol bo‘la oladi. Bu hodisalar Qur’on nozil qilinayotgan vaqtida voqelikni ifodalaganligi e’tiboridan birinchi guruh tarixiy qissalardan farq qilsada, hozirgi davrga nisbatan tarixiylikni ifodalaydi.

Qur’on oyatlarida qissalarning tafsilotlariga batafsil to‘xtalinmagan, ularning zamoni va qissada qatnashgan shaxslarning ismlari kabi ma’lumotlar ochiqlanmagan o‘rinlar mavjud.

Qur’oni karim oyatlarida Payg‘ambarlar (Odam (a.s.), Solih (a.s.), Ibrohim (a.s.), Ismoil (a.s.), Lut (a.s.) va boshqalar), solih odamlar (Luqmoni Hakim, Zul Qarnayn, Hizr va boshqalar), ayollar (Hojar, Lut (a.s.)ning ayoli, Bilqis), qavmlar (Samud qavmi, Od qavmi va boshqa qavmlar), zolim va fojirlar (Firavn, Qorun, Abu Lahab) va ayrim hayvonlar (Fil, Banu Isroilning sigiri, chumoli, G‘or egalarining iti, Yunus (a.s.)ni yutgan baliq kabi)ga tegishli qissalar zikr qilinadi.

Xulosa. Qur’oni karim mavzulari aqida, fiqh va tarixga bo‘linadi. Qur’oni Karim va hadislardagi qissalar hozirgi kunda badiiy adabiyotda shakllangan qissalardan juda qisqa ifodalanishi va mutlaqo haqiqatni ifodalashi bilan farq qiladi. Payg‘ambar (s.a.v.) hayoti davomida islom diniga da’vat qilishda, musulmonlar qalbida sof diniy aqida, munosib turmush tarzi, yuksak insoniy fazilat urug‘larini qadashda qissalardan keng foydalangan. Qur’ondagi qissalar zamon e’tiboridan Rasululloh (s.a.v.)gacha bo‘lgan davrlarda yuz bergen, hamda Muhammad (s.a.v.) va as’hoblari hayotida sodir bo‘lgan qissalarga bo‘linadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 624 b.
2. Abdullayev A.G‘. Qur’onshunoslik. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 192 b.
3. Murodov D., Mahmasobirova F. Hadis adabiyotida qissa janri. Imom Buxoriy saboqlari. – Toshkent, № 1. 2019. – B. 62-64.
4. Abu Ja’far Muhammad Ibn Jarir at-Tabariy. Jomiul bayon an ta’vil oyil Qur’on. – Bayrut: Dorul fikr, 1975.
5. Muhammad Badshoh. Al-Qissotu an-Nabaviy: hosoisiha va ahdafiha at-tarbaviy. Majalla al-qism al-arabi. Lahor, 2015. – B.132-148.
6. Mu’jam al-vasit. – Qohira: Maktaba ash-shuruq ad-davliya, 2005 – 1067 b.
7. Asiye Yilmaz. Kur’an’daki kissalarin din eğitimi açısından değerlendirilmesi. – Sakarya: Sakarya üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü, 2008. – 140 b.
8. <https://yaqeeninstitute.org/read/paper/the-unique-storytelling-style-of-the-quran>